
HASHAR



Hashar

Halqimizda hashar deb nomlangan ajoyib an'ana bor. Bu odat yillar o'tsaki, o'z ahamiyatini yo'qotmagan. Boisi hasharda xalqimizning birligi, ahilligi namoyon bo'ladi.

Bahor kelishi bilan, to'g'rirog'i, Navro'z bayrami arafasida barcha hududlarda umumxalq hasharlari tashkil etilib, ariqlar loyqadan tozalanadi, daraxtlarga shakl berilib tagi oqlanadi, yangi daraxt ko'chatlari ekiladi, qabristonlar obod qilinadi, hududlar chiqindilardan tozalanadi.

Jumladan, bugun So'x pedagogika kollejida ham "Obod va fayzli mahalla - yurt ko'rki" shiori ostida obodonlashtirish va ko'kalamzorlashtirish umumhalq xayriya xashari tashkil etildi. Unda barcha xodimlar ishtirok etishdi va munosib hissa qo'shishdi.

Aytish joyizki, mazkur xayrli amallarda tuman Kengashi deputatlari ham namuna ko'rsatishdi. Amirali Safarov ham deputat sifatida mazkur xayrli amallarda muassasa vakillari bilan bir safda yurt obodligiga o'zining salmoqli hissasini qo'shdi. Hashar yurtimizda davom etyapti.

So'x tumani hokimligi Axborot xizmati



[Bizni ijtimoiy tarmoqlarda kuzating](#)

[Facebook](#) | [Telegram](#) | [Telegram murojaat](#) | [Youtube](#) | [Instagram](#)

2024-03-16 17:37:09